



Nigora RAXIMOVA,
O'zbekiston Milliy universiteti katta o'qituvchisi
E-mail: nigora.rakhimova.1987@mail.ru

Toshkent Farmatsevtika instituti falsafa doktori (PhD) A.Raxmonova taqrizi asosida

UZBEK AND ENGLISH MEDICAL TERMINOLOGY AND THEIR ANALYSIS

Annotation

This article is devoted to the study of Uzbek and English terms within the framework of linguistics, and the opinions of scientists and their theoretical studies on medical terms are expressed in the article.

Key words: Diagnosis, term, lexicography, affix, linguocultural, morphology, semantics.

АНАЛИЗЫ МЕДИЦИНСКИХ ТЕРМИНОЛОГИЯ В УЗБЕКСКОЙ И АНГЛИЙСКИХ ЯЗЫКАХ

Аннотация

Данная статья посвящена изучению узбекских и английских терминов в рамках лингвистики, а также в статье изложены мнения ученых и их теоретические исследования по медицинским терминам.

Ключевые слова: Диагноз, термин, лексикография, аффикс, лингвокультурологический, морфология, семантика.

O'ZBEK VA INGLIZ TIBBIY TERMINLARI HAMDA ULARNING TAHLILI

Annotatsiya

Mazkur maqola tilshunoslik doirasida o'zbek va ingliz terminlarining tadqiqiga bag'ishlangan bo'lib, maqolada tibbiy terminlar xususida olimlarning fikrlari hamda ularning nazariy tadqiqotlari ifodalangan.

Kalit so'zlar: Diagnostika, termin, leksikografiya, affiks, lingvokulturologiya, morfologiya, semantika.

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikning barcha sohalarida bo'lganligi kabi terminshunoslik sohasida ham nazariy va amaliy masalalarni tobora chuqurroq tadqiq etish zamon talabiga aylanmoqda. Tilda terminlar o'z-o'zidan paydo bo'lib qolmaydi, balki ular zaruriyatga ko'ra yuzaga kelib, shakllanadi va til taraqqiyoti bilan bog'liq holda rivojlanib, o'zgarib boradi. Oddiy so'zdan farqli ravishda terminning ma'nosi kontekstga bog'liq bo'lmaydi, ya'ni leksema muayyan sohada qo'llanilar ekan, uning ayni ma'nosi saqlanib qolaveradi. Ko'pincha, tilni yaxshi bilmaslik, uning leksik-semantik, sintaktik va etimologik imkoniyatlari hamda xususiyatlarini yaxshi tushunmaslik sababli nutqda terminlar mantiqan noto'g'ri qo'llaniladi. Tilimizda shunday so'zlar borki, ular alohida semantik maydon sifatida fan bilan, fan taraqqiyoti, undagi yangiliklar va o'zgarishlar bilan bevosita bog'liq holda yuzaga keladi va yashaydi. Bunday termin elementlar o'zbekcha va inglizcha so'zlarga ham qo'shilib, yangi terminlar yasashi, yasama terminning qisqaligi, tushunchani aniq ifodalay olishi, qo'shib yozilishi jihatidan terminologik talablarga mos kelganligi bois ularning miqdori oshib bormoqda. Ta'kidlash joizki, mazkur soha terminologiyasi sistemalar ichida eng qadimiyligi bilan ajralib turadi. Bu o'rinda Abu Ali Ibn Sino asarlarida tarixiy manbalar bioleksikasi o'z aksini topganligini alohida ta'kidlash maqsadga muvofiq.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tibbiyot olamining atqili mutafakkiri Ibn Sino tabiiy fanlarni, jumladan tibbiyotni chuqur tadqiq qilgan. Ayniqsa, uning ushbu sohaga oid «Kitob al-qonun fi-t-tibb» (Tib qonunlari) [Abu Ali Ibn Sino, 1993nashr etilgan] mashhur asarini e'tirof etish joizdir.

Xorijiy tilshunoslar tomonidan farmasevtika sohasi terminologiyasi nazariy va amaliy yo'nalishlarda tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lib, farmasevtika sohasi terminologiyasining bir qator masalalari ingliz va boshqa xorijiy tilshunos olimlar tomonidan ma'lum darajada o'rganilgan. Jumladan, farmasevtik terminlarning leksik-semantik xususiyatlari G.P. Burova hamda O.B. Burdina ilmiy

ishlarida o'z aksini topgan bo'lsa, V.I. Gataulina ingliz terminologiyasini diaxron jihatdan tadqiq qilgan, L.N.Utkina til o'rganish jarayonida lingvistik terminlarning funksional aspektlariga e'tibor qaratgan hozirgacha farmasevtika terminologiyasi bo'yicha o'zbek tilshunoslardan D.Hudoyqulova farmasevtik terminlarning leksikorafik va funktsional-semantik tadqiqoti muhim ahamiyatga ega.

O'zbek tilshunosligida tibbiy terminlar lingvomadaniy jihatdan endigina o'rganishga kirishildi. Xususan, N.Gatbulayevaning dissertatsiyasini ko'rsatishimiz mumkin. Uning tadqiqotida o'zbek jamiyatiga xos tibbiy evfemalarning milliy-etnik, gender xususiyati, nutqiy zanjirdagi qiymati, muloqot jarayonida etnososial xoslanishi ijtimoiy sinf, ijtimoiy rol, ijtimoiy mavqe, ijtimoiy vaziyat kabi omillar doirasida voqelanishi asoslangan. Tibbiy terminlarning metaforik modellashirishning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishda F.Abdulxairovaning tadqiqoti ahamiyatga molik. Bunda tashqar A.Qosimov, H.Xolmatov, A.Usmonho'jayev, O.Najmiddinov, M.Murodova, K.Inomova, I.Zokirov, Ya.Allayorov, Yo.To'raqulov, M.Xo'jamberdiyev, N.Mamasoliyev, O.Siddiqov, R.Sobirov, H.Xolmatov, V.Litvinenko, R.Sobirov, M.Mahmud, M.To'raxonova, M.Hamroyev, M.Qosimova, Ye.Bositxonova, R.Nazirov, V.Avakov, T.Qurbonov, Q.Qurbonov, B.Sangilov va boshqalarning chop etgan lug'atlari muhim ahamiyat kasb etgan. Shu kunga qadar ham bu jarayon davom etib kelmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Hozirgi kunda tibbiyotga e'tibor shuni ko'rsatadiki, qadimgi davrlarda shifokorlar erta bosqichlarda kasallikni aniqlashga, uning sababini topishga, eng yaxshisi – profilaktik chora tadbirlarni o'tkazish hamda hayot tarzini o'zgartirish orqali kasallikni oldini olishga harakat qilishgan. Ana shunday jarayonlarda bir tildan ikkinchi tilga yangi so'zlar kirib kela boshlagan. Bu esa tilshunoslikda til sohiblarining nutqini boyitishga, yangi so'zlarning paydo bo'lishiga olib kelgan.

Tibbiyotni shakllanish va rivojlanish tarixini o'rganish nafakat o'zlashtirish darajasini kengaytirishga, balki

zamonaviy bilimlar tizimini qadimgi tarixiy tizim bilan bog'lashga, hamda qaysidir ma'noda dialektika qonunlaridan foydalangan holatda kelajakka nazar tashlashga, leksikografiyani boyitishga yordam beradi.

Tibbiyot tarixini o'rganish zamonaviy shifokorlarni madaniy, estetik, etik va mahorat jihatdan rivojlanishida asosiy o'rinni til egallaydi. Chunki til rivojlashi natijasida nutqimizda yangi so'zlar, tushunchalar, terminlar paydo bo'ladi. Tibbiyotning rivojlanishi natijasida fanda yangi terminlar kirib kela boshladi. Tibbiyot tarixi umumiy insoniyat tarixining ajralmas qismi hisoblanadi.

Har qaysi davr tibbiyot va sog'liqni saqlash darajasini shakllantiradi, hamda aniqlaydi. Tibbiyotda diniy ilmlar, odamzodni o'ziga va atrofdagilarga munosabati xuddi oynadagi kabi ifodalangan, shu bilan birga tibbiyot o'zining shakllanishida tilshunoslik bilan bog'liqligini ko'rsatmoqda. Olimlar tibbiyot tarixini fan sifatida rivojlanishida shartli ravishda uchta davrga ajratishadi.

O'zbek adabiy tili leksikasi qonuniyatlari negizida shakllangan terminologik leksika tarixini qadimgi turkiy til, eski turkiy til, eski o'zbek adabiy tili hamda sho'rolar davri o'zbek tili terminologiyasi va istiqlol davri o'zbek tili terminologiyasi tarzida davrlashtirish salkam o'n to'rt asrlik vaqt mobaynida terminologik leksika tizimida ekstralingvistik va intralingvistik omillar negizida sodir bo'lgan jarayonlarni anglab yetish imkonini beradi. Hozirgi kunda nutqimizda ishlatadigan tibbiy terminlar ham o'zlashma so'zlar qatoriga kiradi. Masalan, bularga bir inechta misol keltirish mumkin.: yig'iq "kasallik, illat", ag'ri "og'riq", soka "bemor, kasal", isitma, oturmak "yo'tal" va h.k.

M.A.Loginovanning tadqiqoti ingliz tilida tibbiy terminlarning yasashiga bag'ishlangan bo'lib, tadqiqotchi so'z yasashining eng faol usullari orasida affiksatsiya (inhaler, unstable, disconnection), qo'shma so'zlar (thromboembolism)), konversiya (acid), abbreviaturalar (qisqartma) (Adverse Event (AE) ko'proq uchrashini ta'kidlaydi. O'zlashma so'zlar esa ko'pincha kasallik, sindrom va simptomlarning nomlari (parkinsonism, albinism) (parkinsonizm, albinizm) ekanligini qayd etadi [2].

I.S.Danilova va Yu.S.Danilovalar o'z tadqiqot ishlarida ingliz, fransuz va rus tillaridagi tibbiy termin-eponimlarni o'rgangan. Ular tibbiy atamalarda turdosh otlar potentsialining mavhumligi darajasi oshishi, sinonimiya jarayonida eponimlarning ishtirok etishi bilan qayd etishgan [1].

Ilmiy tibbiyotning ma'lum bir janriga bag'ishlangan tadqiqotlar ham mavjud. O.V.Romashovanning ilmiy ishida stasionar bemorning tibbiy kartasidagi janriyuslubiy, rasmiy va ilmiy uslublarning integratsiyasi (bog'liqligi) kuzatiladi. Muallif ushbu janrning vazifasi informasion-kumulyativ, deb belgilaydi va stasionar bemorlarning tibbiy kartalari matnlarida ilmiy uslubning tibbiy terminologiya va terminologik jummalarni (miya shikastlanishi, chap qo'l birinchi barmog'ining proksimal falangasini siljishsiz sinishi, qulay prognoz (oldindan aytish)), abbreviaturalar (qisqartmalar) (SDVG, RTCH), passiv konstruksiyalar [3]

Tahlil va natijalar. Bizda tibbiyot qadimdan rivojlangan soha bo'lib, Ibn Sinoning tibbiyotda qilgan ishlari uning nomini bir necha asrlarga shu fan sohasi bilan chambarchas bog'lad. Olimning tibbiyot taraqqiyotidagi buyuk xizmati shundaki, u o'zigacha o'tgan turli xalq namoyandalari tomonidan asrlar davomida tib ilmi sohasida to'plangan ma'lumotlarni saralab, muayyan bir tartibga soldi va ularni o'z tajribalari bilan boyitgan holda ma'lum nazariya va qonun-qoida asosida umumlashtirdi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Bioorganik kimyo instituti, O'simlik

moddalar kimyosi instituti, Toshkent farmasevtika instituti va boshqa bir qator oliygohlar tomonidan ilmiy asoslangan va klinik sinovlar natijasida o'z tasdiq'ini topgan respublikamiz boy o'simliklar dunyosining namunalar bugungi kunda tibbiyot amaliyotida o'z o'rini topdi

Farmasevtika sohasida keng qo'llanilayotgan Issiriq terminini olsak (Bug'in og'riqlarga surtish foydalidir) Tib qonunlarda Harmal lotin tilidan olingan bo'lib (Pérganum hármala) ko'p yillik o't. Sharqiy yevropa va Markaziy Osiyoning yarim qurg'oqchili dashtlarida o'sadi. Dorivor xususiyatlarga ega yovvoyi o'simlik..

Kiyik o'ti" dorivor o'simligi Kiyik o'ti yer ustki qismi – Herba Ziziphorae pedicellatae (Trava zizifory) Zizifora svetonojchnaya Kiyik o'ti, Ziziphora pedicellata

Yasnotkadoshlar - Lamiaceae oilasiga mansub. Ko'p yillik yovvoyi o'suvchi o't o'simlik. O'zbekistonning barcha tog'li hududlarida keng tarqalgan. Tarkibida efir moyi, flavonoidlar, oshlovchi moddalar saqlaydi. Tibbiyotda gipotenziv, spazmolitik, peshob haydovchi vosita sifatida ishlatiladi

"Na'matak mevalari" Na'matak mevasi – Fructus rosae (Plody shipovnika) Ra'noguldoshlar – Rosaceae oilasiga kiradi

Na'matak o'simligining mevasi tarkibida bir necha xil vitaminlar aralashmasi bor, shu sababli preparatlari avitaminoz kasalliklarini davolashda va oldini olishda ishlatiladi. Bundan tashqari na'matak mevasi qandolatchilik sanoatida mahsulotlarni vitaminlashtirish uchun qo'llaniladi. Na'matak turlarining mevasidan karotolin preparati va na'matak moyi tayyorlanadi. Karotolin mevaning yumshoq-etli qismining moyli ekstrakti (tarkibida asosan karotinoidlar hamda tokoferollar, to'yinmagan yog' kislotalar va boshqa moddalar saqlanadi) bo'lib, tropik yaralar, ekzema, eritrodermitning ba'zi turlari va yaralangan shilliq pardalarni davolash uchun surtiladi yoki dokaga shimdirilib, shikastlangan joyga qo'yiladi.

"Qalampir yalpiz" bargi Qalampir yalpiz bargi– Folia Menthae Piperitae (Listya myaty perechnoy)Qalampir yalpiz – Mentha piperita L, yasnotqadoshlar – Lamiaceae (labguldoshlar - Labiatae) oilasiga qiradi

Ko'p yillik, bo'yi 30-100 sm ga yetadigan o't o'simlik. Qalampir yalpiz yovvoyi holda uchramaydi. Dorivor mahsulot sifatida asosan qora qalampir yalpiz turi o'stiriladi. O'simlik bargida 2,4-2,75%, gul to'plamida 4-6%, poyasida 0,3% efir moyi bo'ladi. Qalampir yalpiz tarkibidagi efir moyidan tashqari, 40mg% karotin, gesperidin, evpatorin va boshqa flavonoidlar, betain, 0,3% ursol va 0,12% oleanol kislotalar bor. Qalampir yalpiz bargi preparatlari, efir moyidan tayyorlangan yalpiz suvi, nastoykasi ko'ngil aynishiga va quvishga qarshi hamda ovqat hazm qilish jarayonini yaxshilashda ishlatiladi. Bundan tashqari, yalpiz suvi og'iz chayqash va miksturalar ta'mini yaxshilash uchun qo'llaniladi. Efir moyidan ajratib olingan mentol quloq, burun, nafas yo'llari kasalliklarida hamda tish og'rig'ini qoldirish uchun ishlatiladi. Mentoldan bosh og'rig'ini qoldiradigan migren qalami tayyorlanadi. Mentol preparatlari – validol, ko'krak qisish (stenokardiya) kasalligida ishlatiladi.

Xulosa va takliflar. Terminlarini barchasini hisobga olgan holda, mazkur maqolada tilning lug'aviy boyligi, jumladan, terminlarning semantik xususiyatlarini o'rganishni maydon nazariyasi yordamida amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Shu sababli, tahlil uchun tanlangan leksik qatlamni to'laroq jalb etish bilan birga, terminshunoslikda ularning taraqqiyot qonunlari, ahamiyati va o'rini belgilash lozim topildi.

ADABIYOTLAR

1. Danilova I.S., Danilova Yu.S. Strukturno-semanticheskiye osobennosti medisinskix terminov v angliyskom i fransuzskom yazykax i problemy ix perevoda na russkiy yazik (kratkoye soobsheniye) // Vestnik novix medisinskix texnologiy. Elektronnoye izdaniye. 2014. №1. URL: <http://www.medsu.tula.ru/VNMT/Bulletin/E2014-1/5047.pdf> (data obrauyeniya: 25.12.2014)
2. Loginova M.A. Osobennosti perevoda terminov v klinicheskix issledovaniyax // Scripta manent. 2016. №22. – S. 89-93.
3. Romashova O.V. Janrovo-stilevaya spesifika medisinskogo dokumenta (na mat-le medisinskoy karty stasionarnogo bolnogo) // Mir nauki, kultury, obrazovaniya. 2014. №5(48). – S. 127-131.
4. Qosimov A., Xolmatov H. Ruscha-o'zbekcha-lotincha farmasevtik terminlar lug'ati. – T.: Ibn Sino, 1990.
5. Gaybullayeva N.I. O'zbek tilida tibbiy evfemalar (tibbiy davriy nashr materiallari asosida): Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. – Buxoro, 2019